Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2022-yil 26-yanvar, chorshanba № 3 (9380)

Xalq ziyolilari gazetasi



**Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun attestatsiya savollari**

10-11-betlar







Bir o'quvchi "Men onlayn olimpiadada 1-o'rinni olibman, ustozim o'rnimga ishlabdi. Bundan juda uyaldim. Menga bunday yutuqning keragi yo'q", deb yozibdi ijtimoiy tarmoqda. Hatto bola ham birovning mehnati ketidan kelgan yutuqni tan olishni o'ziga or bilyapti. Xo'sh, bunaqa ko'zbo'yamachilik kimga kerak? Yaqinda bo'lgan "noutbuk mashmashasi"dan yetarli xulosa chiqarilmabdida. Onlayn olimpiadalar o'quvchilar-u o'qituvchilarni surbet qilayotganday…

**Nafisa RAJABOVA**

Direktor o'rinbosari, yetakchi nima qilyapti, psixolog nimaga oylik olyapti, targ'ibotchi nima qilib yuribdi bilmaymiz. Ularning borligi ham sezilmaydi. O'qituvchilar jon kuydirib dars o'tadi, ustama va mukofotga kelganda muammo chiqadi. Lekin davlatning kattagina summasi tayinli ishi yo'q odamlarga osonlikcha ketaveradi. Shu mablag'larni o'qituvchilarga motivatsiya berish, sifatli dars o'tishi uchun sharoit yaratish, moddiy-texnik bazani boyitishga yo'naltirish kerak. Toki maktab ayrimlarni ish bilan, oylik bilan ta'minlaydigan maskanga aylanib qolmasin.

**Gulchehraxon AZIMOVA**

Teledarslarni har doim ham kuzatishga imkon bo'lmayapti. Bu videolardan keyinroq foydalanish uchun uni yuklab olishga qulay dastur bo'lsa edi... Unda har bir fan darslarini alohida fayl ko'rinishida berilsa ma'qul bo'lardi. Onlayn maktab telegram kanalida bitta sinfning bir kunlik darslari bitta qilib joylashtirilyapti. Uning hajmi taxminan 400–500 MB atrofida. Shaxsiy internet trafikdan foydalanayotgan o'qituvchilar uchun bu juda ko'p-da.

**Hamidulla MEHMONOV**

## 2022-yil uchun obuna davom etadi

☑ 149 indeksi orqali imtiyozli, arzonlashtirilgan narxda obuna bo'lishingiz mumkin. Faqat bunda to'liq bir yilga obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi.

Bu indeks orqali bir yillik obuna narxi:
Toshkent shahri uchun: 370 760 so'm.
Viloyatlar uchun: 419 120 so'm

☑ 150 indeksi orqali 1 yildan kam muddatga ham(3 oy, 6 oy) obuna bo'lishingiz mumkin.
Bunda 1 yillik obuna narxi:
Toshkent shahri uchun: 447 005 so'm,
Viloyatlar uchun: 505 310 so'm.



Bunda sizga telegram yoki elektron pochta orqali obuna blankasi jo'natiladi.

☑ Clik va Payme ilovalari orqali ham onlayn tarzda obuna bo'lish imkoniyati bor(Yo'riqnoma bilan tanishing). Ilova orqali obuna bo'lsangiz, yuqorida ko'rsatilgan narxdagi summani:
(Toshkent shahri uchun: 370 760 so'm.
Viloyatlar uchun: 419 120 so'm) kiritasiz).

☑ Bizga to'lov qilinganligi haqida fotoma'lumot va gazetani yetkazib berish manzilini yuborishingiz kerak.

☑ Endi tahririyatimizga murojaat qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan obuna bo'lishingiz mumkin.

Tel: (99) 866-02-67,
telegram: @marifatga

# STesting elektron platformasi haqida bilasizmi?

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-qarori bilan ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quvchilarning savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni o'rganish va amalga oshirish orqali o'quvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini ta'minlash maqsadida PISA (Programme for International Student Assesment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi baholash dasturlari navbat bilan amalda qo'llanilmoqda.

Xalqaro tadqiqotlar orqali mamlakatimizdagi maktablarning ta'lim sifati xalqaro darajada baholanadi. Hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan bu jarayonlarga tayyorgarlik ko'rish maqsadida A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "STesting" loyihasi amalga oshirildi.

Ushbu loyihaning amaliy ahamiyati, mazmun-mohiyati va qo'llanish yo'riqnomasi haqida Xalq ta'limi vazirligi hamda A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti mutasaddilari ishtirokida bo'lib o'tgan seminarda batafsil ma'lumot berildi. Seminar davomida ushbu platformani ishlatish yo'riqnomasi bilan tanishtirildi va o'qituvchilarning malakasini oshirish, ota-onalarning ham farzandlariga bu platformani o'zlashtirishida ko'maklashishiga oid loyihalar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

STesting elektron platformasi xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o'z ichiga olgan innovatsion platformadir. Platformaga 1000 dan ortiq testlar joylashtirilgan bo'lib, mazkur elektron platforma sentabr-oktabr oylarida tanlab olingan maktablarda tajriba-sinovidan o'tkazildi. Eng muhim jihatlaridan biri ushbu test trenajyor platformadan foydalanish mutlaqo tekin. Platformada avvalgi xalqaro tadqiqotlarda foydalanilgan savollar joylashtirilgan bo'lib, bu savollar orqali o'quvchilarimizda xalqaro tadqiqot topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Mazkur platforma orqali o'qituvchi va o'quvchilar xalqaro baholash dasturlarining topshiriqlarini o'zida mujassam etgan elektron tizimda o'z bilimlarini sinashi, shuningdek, ota-onalar videolar bilan tanishish orqali xalqaro tadqiqotlarga farzandlarini tayyorlab borishlari mumkin. O'qituvchi va o'quvchilar ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashda elektron platforma materiallarini bepul yuklab olish imkoniyatiga ega.

STestingda faqat testlar yoki savollar emas, qiziqarli videolar ham joylashtirilgan bo'lib, dastur o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar uchun ham mo'ljallangan. Platformaga 100 dan ortiq videolar joylashtirilgan. Bu videolarda o'quvchilarga turli vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlari, yechimni to'g'ri topishlari uchun yordam berish ko'zda tutilgan. Har bir video uchun alohida ma'lumotlar to'plangan va o'quvchiga qiziqarli tarzda yetkazib berilgan.

Ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O'zbekistonning ishtirokini ta'minlash va 2030-yilga borib kuchli 30 talikka kirishga erishish maqsadi belgilab berilgan. Ilk marta mamlakatimiz bunday tadqiqotda qatnashadi. Shu sababdan biz uchun ham, bolalarimiz uchun ham bu yangilik hisoblanadi. Bolalarimiz bunday uslubda o'qitilmaganligi sababli bu kabi savollarga, o'qitish uslubiga duch kelishmagan.

Shu sabab tadqiqot jarayonida o'quvchilarimiz ruhan tushkunlikka, ikkilanishlarga duch kelmasliklari uchun aynan shu STesting loyihasi yaratildi. O'quvchilarimiz xalqaro tadqiqot topshiriqlari bilan qanchalik ko'p tanishib borsa, haqiqiy tadqiqotlar boshlanganda o'zlarini yo'qotib qo'ymaydilar.

Endi o'qituvchilar va o'quvchilar bu yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishlari lozim. Buning uchun o'quvchilarni platformadan foydalanishga o'rgatishlari va bu ishga ota-onalarni ham jalb etishlari lozim. Ota-onalar ham bo'sh vaqtlarida platformaga kirib qiziqarli topshiriqlarni farzandlari bilan yechib ko'rishsa foydadan xoli bo'lmaydi. Biz o'quvchilarimizni qanchalik tez bu platformadan foydalanishga o'rgatolsak, ularda xalqaro tadqiqot topshiriqlari bilan ishlash malakalarini shakllantira olamiz va o'quvchilarimizning navbatdagi yillarda ishtirok etadigan xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli natijalarga erishishiga zamin yaratgan bo'lamiz.

**Asror SUYUNOV,**
**Kasbi tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri**

Qaror va ijro

# Oliy ta'lim islohotlari va SamDU

O'zbek xalqining faxr-u iftixori hisoblangan osmon ostidagi muzey shahar, ko'hna va hamisha navqiron Samarqandning go'zalligi shu qadarki, xalqimiz asrlar osha uni "Sayqali ro'yi zamin ast" (Yer yuzining sayqali, ko'rki) deya madh etib kelgan.

Bu go'zal shahar me'moriy obidalari bilangina emas, balki intellektual salohiyati bilan ham Markaziy Osiyoning eng ko'zga ko'ringan ta'lim va ma'rifat markazlaridan hisoblanadi. O'n beshinchi asrda — Amir Temur saltanati asos solgan ikkinchi Renessans davrida Mirzo Ulug'bek (1394–1449) xuddi buyuk bobosi Amir Temur kabi Samarqandga davrining yirik olimlarini to'plab, ulardan madrasalarda mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazishni talab etgan edi. O'zi ham boshqa ustozlarga o'rnak bo'lib, yoshlarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni o'rgatish uchun rasadxonada mashg'ulotlar o'tkazgan.

Prezidentimiz "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi" deya ta'kidlagan edi. Shu maqsadda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi infrastrukturasini zamon talablariga, xususan, raqamli iqtisodiyot va umuman moliyaviy talablarga muvofiq tubdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ko'plab oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

O'qitishning kredit-modul tizimiga o'tilishi munosabati bilan aksariyat oliy ta'lim muassasalarida ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi tashkil qilindi. Ushbu bo'lim faoliyati xalqaro reytinglarda yuqori o'rinda turgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati va tajribalarini, kredit-modul tizimining ishlash mexanizmini o'rganish, ushbu jarayon monitoringini tashkil etishga qaratilmoqda.

Ta'limni boshqarish tizimlarining o'zaro elektron integratsiyasi, ma'lumotlarning elektron bazalari, elektron hujjat almashinuvi kabilar faol tatbiq etildi. Mehnat staji, ish tajribasiga ega fuqarolar ishlayotgan korxona tavsiyasi bilan suhbat asosida oliy o'quv yurtiga kirib o'qimoqda. Bu borada "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalar muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi ta'minlanishi, professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 barobarga oshirilgani, xorijiy o'quv yurtlarining faoliyat olib borayotgani — so'nggi yillardagi oliy ta'lim islohotlarining samarasidir. Shuningdek, xorijda ta'lim berayotgan yoki ta'lim olib O'zbekistonda o'qituvchilik faoliyatini yuritayotganlarni oliy o'quv yurtlariga jalb qilish jarayonlari davom etmoqda.

Oliy ta'limdagi islohotlar xalqaro maydonda ham mamlakatimiz obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekistonning 4 ta oliy ta'lim muassasasi "Quacquarelli Symonds" xalqaro agentligining eng yaxshi universitetlar reytingida ko'rsatkichlar bo'yicha o'z natijalarini oshirdi. Unda O'zbekiston Milliy universiteti o'tgan yili 351+ o'rin olgan bo'lsa, 2022-yil uchun e'lon qilingan reytingda 100 pog'ona yuqoriga ko'tarilib, 251+ o'rinni egalladi. Bundan tashqari, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti 211+ o'rin bilan o'tgan yilgi natijalardan 40 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Shuningdek, Toshkent davlat texnika universiteti va Samarqand davlat universitetlari o'tgan yilgi 351+ o'rinni saqlab turishibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ham oliy ta'limni rivojlantirish sari bosilgan salmoqli odim deb hisoblash mumkin. Qarorga ko'ra, Samarqand davlat universitetiga xalqimizning ulug' farzandi Sharof Rashidov nomi berildi. Sharof Rashidovning o'tgan asrning ikkinchi yarmida yurtimizda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga, ta'lim-tarbiya, san'at va adabiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasini barchamiz yaxshi bilamiz. Ushbu muhim hujjatda universitet faoliyatini takomillashtirish, o'qitishning kredit-modul tizimini joriy qilish, ilmiy va o'quv salohiyatini oshirishga qaratilgan o'ta muhim yo'nalishlar belgilab berilganligi ham e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, qarorda universitetning oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash borasidagi xalqaro reytingini oshirish, bitiruvchilarning kasbiy darajasi jahon intellektual bozorida tan olinishiga erishish hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalarning qo'yilganligi ham yurtimizda oliy ta'limni zamon talablari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Endilikda universitet akademik mobillikka erishish uchun har bir yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha xorijiy OTMlar bilan talabalar va o'qituvchilar almashinuvini kengaytiradi.

Bunday islohotlar kelajakda Samarqand davlat universitetining oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytingida yuqori o'rinlarda turishi hamda salohiyatli kadrlar bilan O'zbekiston iqtisodiyoti, sanoati va madaniyatini rivojlantirishga munosib hissa qo'shishiga zamin bo'ladi.

**Xolboy IBROHIMOV,**
**Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor**

Сканировано с CamScanner